

Vladivostokka yoki Vladivostokdan — ko‘proq bagaj bilan sayohat qiling!

2025 30 Iyun

2025-yil 1-iyuldan 31-iyulgacha Toshkent – Vladivostok – Toshkent yo‘nalishida amalga oshiriladigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarda yo‘lovchilarga iqtisodiy klass bo‘yicha 1 dona (32 kg gacha) bagajni bepul olib ketish huquqi beriladi — aviabilet xarid qilingan sanasidan qat‘i nazar.

Bagaj tashishning boshqa me‘yorlari o‘zgarishsiz qoladi:

- Biznes-klass yo‘lovchilari uchun — 2 dona bagaj, har biri 32 kg / 158 sm gacha
- Chaqaloqlar uchun — 1 dona bagaj, 10 kg / 115 sm gacha

E‘tibor bering: uzluksiz (skvoznoy) parvozlar uchun amal qiladigan bagaj me‘yori o‘zgarishsiz qoladi.